

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/27.02.2020.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**HAYOTOVA NAFISA ZAKIROVNA**

**BUXORODA ZAMONAVIY SHAHAR MADANIYATI**  
**(1991-2021 yillar)**

**07.00.01 - O'zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa doktori (PhD)dissertatsiyasi avtoreferati mundarajasi**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**  
**Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation**

<b>Hayotova Nafisa Zakirovna</b> Buxoroda zamonaviy shahar madaniyati (1991-2021yy.) .....	3
<b>Ҳаётова Нафиса Закировна</b> Современная городская культура в Бухаре (1991-2021 гг.).....	23
<b>Hayotova Nafisa Zakirovna</b> Modern urban culture in Bukhara (1991-2021) .....	43
<b>E'lon qilingan ishlar ro'uxati</b> Список опубликованных работ List of published works .....	47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD. 03/27.02.2020.Tar.72.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**HAYOTOVA NAFISA ZAKIROVNA**

**BUXORODA ZAMONAVIY SHAHAR MADANIYATI**  
**(1991-2021 yillar)**

**07.00.01 - O'zbekiston tarixi**

**TARIX FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI**  
**AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.02.PhD/Tar1135 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz). Ilmiy kengash veb sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) va "ZiyoNET" axborot- ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Jamolova Dilnoza Muyiddinovna**

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

**Rasmiy opponentlar:**

**Xudoyqulov To'lqin Do'stboboyevich**

tarix fanlari doktori, professor

**Qurbonova Manzila Boqiyevna**

tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020 TAR.72.07 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil "10" "04" soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tdi. (manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy ). (Tel (99865) 221-29-14, faks: (99865) 2212707, e-mail: busu [rector@edu.uz](mailto:rector@edu.uz)).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 297 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy). (Tel (99865) 221-29-14, faks: (99865) 2212707).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "24" "03" kunida tarqatildi.

(2023-yil "24" "03" dagi 6- raqamli reyestr bayonnomasi)



**Inoyatov S.I.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

**Rashidov O.R.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kengashi, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hayitov Sh.A.**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon tarixida shaharlar ahamiyati beqiyos bo'lib, ular qadimdan savdo, hunarmandchilik, fan va madaniyat markazlari sifatida bashariyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan. Azaldan dunyo davlatlari sivilizatsiyasi shaharlarning taraqqiyoti darajasiga qarab belgilangan. O'zbekistonning Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi tarixiy shaharlari dunyo mamlakatlarining o'zaro savdo-iqtisodiy, diplomatik va madaniy aloqalar tizimida munosib o'rinni egallab kelgan. Bugungi globallashuv davrida tarixiy sharoitning o'zgarishi, iqtisodiy-ijtimoiy sohalaridagi yuksalish mintaqadagi shaharlar tuzilishi va ahamiyatiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi o'nlab ilmiy tadqiqot markazlari hamda oliy o'quv yurtlarida tarixchi va iqtisodchi-geograflar tomonidan zamonaviy shahar madaniyati taraqqiyot bosqichlari, xususan shahar qurilishi, shahar infratuzilmasining rivojlanishi, barqaror shahar muhitini shakllantirish, urbanizatsiya va aglomeratsiya jarayonlari yuzasidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlarida shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari o'ziga xos kechgan bo'lib, shahar boshqaruvini tashkil qilish va shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi har bir davlatda o'zgacha xususiyat kasb etgan. Shu sababli kelajakda shaharlarni rivojlantirish borasida vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda zamonaviy shaharsozlik tendensiyasini sinchkovlik bilan o'rganish talab qilinadi. Bu borada BMTning XABITAT dasturi<sup>1</sup>da zamonaviy shaharlarning taraqqiyot ko'rsatkichlari bo'yicha belgilangan mezonlar ahamiyati kattadir<sup>2</sup>.

Bugungi kunda O'zbekistonda zamonaviy shahar madaniyati, uning ijtimoiy va iqtisodiy infratuzilmasi, kommunikasiya, logistika, transport tizimi, ekologiya, arxitektura, turizm rivoji masalalari o'rganilib kelinmoqda. O'zbekistonda hududlarni kompleks rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Har bir tuman va shahar sanoatini rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli dasturlar ya'ni mamlakat aholisining urbanizatsiya darajasini 2030 yilga qadar 60 foizga yetkazish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqish" kabi chora-tadbirlar ilgari surilgan<sup>3</sup>. O'zbekiston shaharlari tizimida alohida o'ringa ega bo'lgan, qadimdan bir joyda shakllanib hamda rivojlanib kelganligi bilan mintaqadagi shaharlardan ajralib turadigan Buxoro shahrining rivojlanishi va zamonaviy shaharsozligining alohida tadqiq etilmaganligi mavzuning dolzarbligini asoslashda muhim o'rin tutadi.

2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 21 sentyabrdagi 734-sonli "2019-

---

<sup>1</sup>"BMT-XABITAT"- BMTning kelajak shahrini takomillashtirishga yo'naltirilgan dastur.

<sup>2</sup>Уровень жизни городского населения в Узбекистане сквозь призму глобального экономического кризиса. Ташкент. 2010. – С. 38.

<sup>3</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // <http://prezident.uz/lists/view/2228>.

2023 yillarda Buxoro viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 215-sonli 2022 yil 27 apreldagi "2022-2026 yillarda Buxoro viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari hamda ushbu sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli dasturining ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Shaharlar jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgani bois, ijtimoiy-gumanitar fan sohasining olimlari, shuningdek, geografiya, iqtisod, arxitektura yo'nalishlari tadqiqotchilari tomonidan o'rganilib kelingan. Istiqloq yillarida shahar madaniyati va shaharsozlikni yuksaltirish, shaharlarni yashash uchun qulay aholi markazlari borasida qadimgi shaharlarning taraqqiyot dinamikasi o'rganilib, bu borada ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi. Jumladan, Buxoroda zamonaviy shahar madaniyati masalasini o'rganish bilan bog'liq yozilgan ishlarni ikki guruhga ajratish mumkin.

1. Mustaqillik yillarida yozilgan asarlar va tadqiqotlar
2. Xorijda chop etilgan ishlar

Birinchi navbatda mustaqillik yillarida O'zFA Tarix institutida O'zbekiston shaharlari tarixiga oid fundamental ilmiy tadqiqotlar, shuningdek geografiya sohasida ayrim ishlar olib borilganligini qayd etish mumkin<sup>4</sup>. Tarixchi olimlardan G.A.Agzamova, D.H.Ziyayeva, S.B.Shodmonova, A.Z.Tog'ayeva, Sh.M.Rahmatullayev kabi olimlarning asarlari bu borada muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ularda Buxoro shahar madaniyatining rivojlanish bosqichlari, turizm, ekologiya, ijtimoiy-iqtisodiy masalalar ilk bor o'z aksini topdi. Bu yo'nalishda yozilgan ishlar qatorida A.E. Qurahmedov, M.Hotamov, H.I. Mamadaliyev, B.J.Eshovning<sup>5</sup> ilmiy izlanishlarini alohida qayd etish mumkin. Bu davrda Buxoro

---

<sup>4</sup>Agzamova G.A. Ўзбекистон шаҳарлари XVI-XIX аср ўрталарида. – Тошкент.: "Adabiyot uchqunlari", 2017. – 225 бет; Зияева Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида. – Тошкент: "Yangi nashr", 2017. – 440 бет; Шодманова С.Б. Ўзбекистон шаҳарларида трансформация жараёнлари (1917-1941). Тошкент, 2015. – 333 бет; Ўзбекистонда замонавий шаҳар маданияти. - Тошкент, 2017. – 285 бет; Тоғаева А.З. Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари ва шаҳар маданияти. – Тошкент, 2017. – 246 бет; Раҳматуллаев Ш. Фарғона водийси шаҳарларида иқтисодий трансформация жараёнлари (1991-1996 йиллар). - Тошкент, 2017. – 200 бет; Перемкулов Ж.А. XX аср ўрталарида –XXI аср бошларида Тошкент вилояти саноат шаҳарлари тарихи.:Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент, 2021. - 47 б.; Раҳимова Г.С. XX аср 50-90 йиллари Фарғона водийси саноат ривожланишининг экологик ҳолатига таъсири: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати, 2018. - 47 б.; Мирзаев М. Ўзбекистонда тарихий ва маданий ёдгорликларни муҳофаза этиш ва ўрганиш ишининг ташкил топиши ва ривожланиши (1917-1941 йй). Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. - Тошкент, 1994. – 144 б.; Таштаева С.К. Ўзбекистон шаҳар агломерацияларининг шаклланиш ва ривожланиш хусусиятлари (Тошкент агломерацияси мисолида). География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. – Тошкент, 2011. - 160 б.

<sup>5</sup> Курахмедов А.Э., Сиддикова М.Х. Самарқанд шаҳри мустақил тараққиёт бунёдкорлик йўлида. - Самарқанд, 2016. – 91 бет; Хатамова М. Ўзбекистон шаҳарлари VI-VIII асрларда. – Тошкент: Yangi nashr,

shahri tarixiga bag'ishlangan monografiyalar, ilmiy-ommabop asarlar va tadqiqotlar, ilmiy maqolalar chop etildi. Shaharning yubiley sanasi bilan bog'liq ilmiy to'plam<sup>6</sup>, Buxoro tarixining eng qadimgi zamonlardan 1997 yillargacha bo'lgan davrni o'zida mujassamlashtirgan kitob<sup>7</sup> hamda Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari<sup>8</sup> va ilmiy maqolalar to'plandi.

S.I.Inoyatov, H.X.To'rayev, Sh.A.Hayitov, Q.K.Rajabov, B.T.Mirzaqulov kabi tarixchi olimlar tomonidan yozilgan tadqiqotlarda Buxoro shahri tarixining turli davrlariga oid ma'lumotlar keltirilib, sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan qator o'zgarishlarning ijobiy va salbiy oqibatlariga baho berilgan<sup>9</sup>. O'zbekistondagi qadimgi shaharlar tarixining mustaqillik davri taraqqiyotiga oid bir qator dissertatsiyalar yozildi. Tadqiqotchi olimlardan J.N.Tursunov, Sh.M.Rahmatullayev, N.S.O'roqova, D.E.To'xtaboyeva, M.X.Sidiqova, Sh.B.Xoliqulova, D.O.Haydarov, H.S.Murodov dissertatsiyalarini sanab o'tish mumkin<sup>10</sup>.

---

2017. – 243 bet; Мамадалиев Х. Ўзбекистон шаҳарлари IX-XII асрларда. -Тошкент: Adabiyot uchqunlari, 2017. – 191 bet; Эшов. Б. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. –Тошкент : М.Улуғбек, 2000. - 219 бет.

<sup>6</sup> Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган “Инсониятнинг илмий ва маданий мероси - учинчи минг йилликда” халқаро симпозиуми тезислари.Тошкент, Ўзбекистон. 1997. - 300 б.

<sup>7</sup> Бухоро Шарқ дурдонаси.-Тошкент: Шарқ, 1997. - 162 б

<sup>8</sup> “Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)” Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2016 йил 9-10 декабрь. Бухоро, 2016. – 220 б; Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)” Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2019 йил. Бухоро, 2019. – 253 б; Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)” Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2019 йил. Бухоро, 2019. – 164 б; Бухоронинг жаҳон маданиятидаги ўрни. Республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий конференция. 2020 йил 27 апрель. Бухоро, 2020. – 477 б.; “Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)” Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2021 йил. Бухоро, 2021. – 406 б; Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари тарих ва ҳозирги замон (халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. 2007 йил 30-31 март, 2-жилд): Тошкент. - Б. 206.

<sup>9</sup>Тўраев Х. Бухоро тарихи. Бухоро: Дурдона. 2020. – 316 бет; Ҳайитов Ш, Раҳмонов К, Аҳмадов О. Бухоро ва Бухорийларнинг жаҳоний шухрати. Тошкент: Наврўз, 2020. – 208 бет; Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. Тошкент: Тафаккур, 2015. – 459 бет; Ражабов Қ. Бухоро вилояти тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Тафаккур, 2015. - 76 бет; Ражабов Қ., Ҳайитов Ш., Содиков Ф. Бухоро тумани тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Тафаккур, 2015. - 52 бет.; Ражабов Қ., Жамолова Д. Когон шаҳри тарихи. тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: Тафаккур, 2015. - 64 бет; Мирзақулов Б. Бухоро тарих зарварақларида. 1-китоб. Тошкент: Lesson Press, 2016. – 285 бет; Шу муаллиф. Бухоро тарих зарварақларида. 2-китоб. Бухоро: Дурдона, 2018. – 211 бет.

<sup>10</sup>Турсунов Ж.Н. История экономического и социального развития городов Узбекистана (на примере городов Бойсун, Шаргун, Шурчи) 1971-1990. Автореф. дисс...канд. ист. наук. Тошкент, 1995. – 22 с.; Раҳматуллаев Ш.М. Мустақиллик шароитида Фарғона водийси шаҳарларида ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар (1991-1996 йй). Тарих фанлари бўйича илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. - Тошкент, 2004.; Ўроқова Н.С. Ўзбекистонда мустақиллик даврида саноат соҳасидаги ислохотлар ва ўзгаришлар жараёни (жанубий вилоятлар мисолида) Тарих фанлари бўйича илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация. - Тошкент; 2004.; Тўхтабоева Д.Э. Фарғона водийси вилоятларидаги кичик ва ўрта шаҳарларнинг ривожланиши: ўзгаришлар ва муаммолар (1991-2016 йиллар). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Тошкент; 2019. - 45 б.; Сидиқова М.Х. Самарқандда замонавий шаҳар маданиятининг ривожланиш хусусиятлари (1991-2017йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент; 2019. - 54 б; Холиқулова Ш.Б. Қуйи Зарафшон воҳасида саноат ишлаб чиқарилишини ривожланиши жараёнлари (1991-2016 йй). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Тошкент; 2020. - 51 б; Ҳайдаров Д.О. XX аср охири –XXI аср бошларида Ўзбекистонда саноат шаҳарларини ривожланиши тарихи (Зарафшон иқтисодий райони мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. - Самарқанд ; 2021. - 54 б; Мurodov X.C. Бухорода туризмнинг ривожланиши тарихи (1991-2021йй.) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Бухоро. 2022. - 56 б.

Buxoro shahrini o'rganish bo'yicha iqtisod, geografiya, demografiya va arxitektura yo'nalishida bir qator tadqiqotlar olib borildi. A.Mavlonovning tadqiqotlarida Buxoro viloyati misolida shaharlar turi va tizimidagi o'zgarishlar, ularning cho'l sharoitiga moslashuvi hamda shaharchalarning rivojlanishi masalalari tadqiq qilingan<sup>11</sup>. M.A.Kadirovning monografiyasida shaharlarni o'rganishning geografik jihatlari, shaharlar aglomeratsiyasi, shaharlarning funksional tiplari hamda shaharlar muammosi haqida ma'lumotlarni keltirib o'tgan<sup>12</sup>. Shahar me'morchilik yo'nalishida shaharsozlik kodeksi<sup>13</sup>, shaharning bosh rejasi<sup>14</sup> va tarixiy obidalarni saqlash va tiklash borasida tadqiqotlar olib borildi. Me'mor N.N.Fayzullayeva o'z tadqiqotlarida Buxoroning eski shahar qismidagi tarixiy uylarni saqlash va qayta tiklash borasidagi jarayonlarni tahlil qilgan<sup>15</sup>.

Xorijiy tadqiqotchilar izlanishlarida asosan Buxoro shahrining rivojlanish jarayonlari, me'morchiligi, urf-odatlar hamda qadimiy obidalarga qiziqishi namoyon bo'ladi<sup>16</sup>.

Tadqiq etilayotgan mavzuning o'rganilganligi bo'yicha tahliliga ko'ra, mustaqillikning o'ttiz yilligi davomida Buxoro shahrining tarixiy-urbanistik jarayonlari maxsus o'rganilmagan.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya mavzusi O'zR Tarix institutida amalga oshirilgan F1-FA-0-11896 "O'zbekiston shaharlari tarixi: an'analar, urbanizatsiya va transformatsiya jarayonlari (eng qadimdan hozirgacha)" fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Buxoroda zamonaviy shahar madaniyatining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, transformatsiyasi, ushbu jarayonlarga ta'sir qilayotgan omillar va muammolarni tahlil qilishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Buxoroda shahar madaniyatining tarixiy ildizlarini tahlil qilish;  
Mustaqillik yillarida Buxoro shahri aholisining o'sish dinamikasi, urbanizatsiya va aglomeratsiya masalalarini ochib berish;

---

<sup>11</sup> Мавлонов А.М. Чўл шароитида шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланиш муаммолари (Бухоро вилояти мисолида). География фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент, 2010.; Мавлонов А. Чўл урбанизацияси. Бухоро: Дурдона, 2015. – 188 бет.

<sup>12</sup> Кадиров М.А. Шаҳарлар географияси. Самарканд: "Зарафшон". 2019. – 175 бет.

<sup>13</sup> Бакирхонов Ф.Ф. Республикаси шаҳарсозлик кодекси - шаҳарсозликнинг ривожлантиришнинг қонуний асоси // Ўзбекистон архитектураси ва қурилиши. - 2002. - №1. Б. 10-11.

<sup>14</sup> Город Бухара. Бухарская область. Генеральный план. Пояснительная записка. - Ташкент. 2019. – 212 бет.

<sup>15</sup> Файзуллаева Н.Н. "Ўзбекистон тарихий шаҳар марказларида турар жойларни сақлаш ва қайта тиклаш усуллари (Бухоро шаҳри мисолида)" мавзусидаги архитектура бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Тошкент. 2021. - 48 б.

<sup>16</sup> Rutkouskaya, Hanna (Hanna Nikolaevna). Refining historical Bukhara: professional architectural vision of the national heritage in late Soviet Uzbekistan (1965-1991). Thesis (S.M.)- Massachusetts Institute of Technology, Dept. of Architecture, 2012. – P. 96; Georgiy G. Levashov. Computer analyses of the historical development of Bukhara city from the 5<sup>th</sup> c. B.C. to the 19<sup>th</sup> c. A.D. Massachusetts Institute of Technology, Dept. of Architecture, 1998.– P.54.; Jafar Taheri. Celestial and mythical origins of citadel of Bukhara. Endeavour. [www.elsevier.com/locate/endeavour](http://www.elsevier.com/locate/endeavour), 2021. – P. 21-29; Amjad Bohumil Prochazka. Bukhārā (Architecture of the Islamic cultural sphere). Organization of Islamic Capitals and Cities, 1993. 120 pages.

Shahar zamonaviy ijtimoiy infratuzilmalar va ularning (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy-maishiy va sport muassasalari) hozirgi holatini tahlil etish;

Barqaror shahar muhitini shakllantirish borasidagi yutuq va kamchiliklarni tadqiq qilish;

Shaharsozlikda tarixiy-madaniy obidalarni ta'mirlash, restavratsiya qilish va konservatsiyalash jarayonlarini ko'rsatish;

Shahar infratuzilmasida turizm rolini oshib borish dinamikasini yoritish;

Shahar qurilishi rejaları va bunyodkorlik ishlarini o'rganish asosida ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

**Tadqiqotning ob'yekti sifatida** 1991-2021 yillarda Buxoroda zamonaviy shahar madaniyati tarixi va rivojlanish xususiyatlari tanlab olindi.

**Tadqiqotning predmetini** shahar infratuzilmasi, iqtisodiy rivojlanishi, ma'muriy-hududiy tuzilishi, aholi dinamikasi, mustaqillik yillarida amalga oshirilgan me'morchilik va qurilish ishlari, ijtimoiy – madaniy muassasalar, shahar ekologik muhiti masalalari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik, qiyosiy, statistik va dinamik tahlil usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

sovet hukumati tomonidan 1925-1990 yillar davomida Buxoroning sanoat shahriga aylantirishi oqibatida ko'plab tarixiy obidalarining buzib tashlangani, shuningdek, tabiiy va geografik sharoitlar inobatga olinmasligi natijasida atrof-muhitga, aholining salomatligiga, shahar infratuzilmasiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi asoslangan;

Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilishi Buxoroning iqtisodiy salohiyatini oshirish bilan birga yo'ldosh shaharlardagi ortiqcha mehnat resurslaridan samarali foydalanish imkonini berganligi, bu esa o'z navbatida, aglomeratsiyalashuv jarayonining eng muhim sharti bo'lgan manzilgohlar o'rtasidagi aholi qatnovi, ya'ni mayatniksimon migratsiyaning vujudga kelishiga sabab bo'lganligi ochib berilgan;

“Buxoro” xalqaro aeroporti, Buxoro temir yo'l bekati va jamoat transportlarida sifatli xizmatning tashkil etilishi, mehmonxona va gastronomik turizmni rivojlantirilishi, sayyohlar uchun tarixiy obidalar xaritasi mobil ilovalarining yaratilishi shahar turistik salohiyatining ortishiga xizmat qilgani isbotlangan;

Buxoro shahridan atrof-muhitga zarar keltiruvchi yirik sanoat korxonalarining chekka hududlarga ko'chirilishi natijada havoga chiqayotgan zaharli moddalarning kamayganligi, shahar aholisini to'liq ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi, oqava suv to'plash inshootlarining rekonstruksiya qilingani kabilar barqaror shahar muhitini yaratishga xizmat qilayotganligi dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** Buxoro tarixini o'rganish jarayonida zamonaviy shaharsozlik madaniyatiga oid monografiyalar yaratishda, tarix, me'morchilik mutaxassisligi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun shaharsozlikni o'rganish jarayonida maxsus kurslar ishlab chiqishda, Buxoro shahar boshqaruvi idora va tashkilotlarga esa amaliy tavsiyalar tayyorlashda tadqiqot natijalari muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** unda mavzu mohiyatini ochib berishda O'zbekiston Milliy arxivi, Buxoro viloyat davlat arxivi fondlari, Buxoro viloyat Qurilish bosh boshqarmasi joriy arxivi, ilmiy adabiyotlar hamda ko'p sonli ijtimoiy-gumanitar fanlar vakillarining tadqiqotlaridan foydalanilganligi, Buxoro viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari, Buxoro viloyat madaniy meros boshqarmasi, Buxoro shahar hokimiyatining joriy arxiv materiallari kabi birlamchi manbalarga asoslanilgani, shu asosda tegishli xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani hamda tadqiqot jarayonida olingan natijalarning vakolatli davlat muassasalari tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, keltirilgan materiallar va xulosalar Buxoro shahrining mustaqillik yillari tarixi bo'yicha ilmiy ishlar yaratishga, zamonaviy shaharsozlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqishga, shaharlar tarixi bo'yicha mustaqil kurslar tashkil etish hamda o'quv qo'llanmalarni yaratishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Buxoroda zamonaviy shahar madaniyati (1991-2021) mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va takliflar asosida:

sovet hukumati tomonidan 1925-1990 yillar davomida Buxoroning sanoat shahriga aylantirishi oqibatida ko'plab tarixiy obidalarining buzib tashlangani, shuningdek, tabiiy va geografik sharoitlar inobatga olinmasligi natijasida atrof-muhitga, aholining salomatligiga, shahar infratuzilmasiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi to'g'risidagi materiallardan Buxoro viloyati Xalq deputatlari Kengashi huzuridagi jamoatchilik fondining "Ijtimoiy sheriklik doirasida Abu Hafs Kabir muqaddas qadamjosini obodonlashtirish, ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot-tashviqot choralari amalga oshirish" nomli amaliy loyihasida foydalanilgan ("Buxoro merosi" ilmiy-tadqiqot markazining 2022 yil 3 martdagi № 7-sonli ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot materiallarining loyihada joriy etilishi Buxoro shahridagi me'moriy obidalar tarixini manbalar asosida yoritib berish imkonini bergan.

"Buxoro" xalqaro aeroporti, Buxoro temir yo'l bekati va jamoat transportlarida sifatli xizmatning tashkil etilishi, mehmonxona va gastronomik turizmni rivojlantirilishi, sayyohlar uchun tarixiy obidalar xaritasi mobil ilovalarining yaratilishi shahar turistik salohiyatining ortishi hamda Buxoro shahridan atrof-muhitga zarar keltiruvchi yirik sanoat korxonalarining chekka hududlarga ko'chirilishi natijasida havoga chiqayotgan zaharli moddalarni kamayganligi, shahar aholisining to'liq ichimlik suvi bilan ta'minlanganligi, oqava suv to'plash inshootlarining rekonsruksiya qilingani barqaror shahar muhitini yaratishga xizmat qilayotganligi haqidagi ma'lumotlardan O'zbekiston Yoshlar ittifoqi Markaziy kengashining loyiha va targ'ibotlarida foydalanilgan. (O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy kengashining 2022 yil 8 fevraldagi 04-13/133 – sonli dalolatnomasi). Ilmiy tadqiqot natijalarining joriy qilinishi yosh avlodning yurtimiz tarixini chuqur va xolis o'rganish, shaharsozlik tarixini mukammal darajada tadqiq etish hamda xalqimizni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijasida olingan xulosa va takliflar 5 ta respublika, 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini nashr etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 124 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, uning o'rganilish darajasi tasniflangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti aniqlashtirib olingan, tadqiqotning fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi ko'rsatilib, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchli asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqotning amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va dissertatsiyaning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Buxoro shahar madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy xususiyatlari**" deb nomlangan birinchi bobi Buxoroda shahar madaniyati shakllanishining tarixiy bosqichlari va istiqloлга qadar bo'lgan holati hamda mustaqillik yillarida Buxoro shahri demografik jarayoni va aglomeratsiya masalalariga bag'ishlangan.

Qadimdan yirik tijorat markazlaridan biri bo'lgan Buxoro shahri O'zbekistonning janubiy-g'arbida, Zarafshon daryosi quyi oqimida joylashgan. Ilk o'rta asrlarda dehqonchilik, hunarmandchilik hamda savdo-sotiqning yuksalishi shaharning gullab yashnashiga, hunarmandchilik mahallalarining ko'payishiga olib keldi. Buxoro 709 yil Arab xalifaligiga qo'shib olingan bo'lib, IX asr oxiriga kelib, musulmon dunyosining yirik madaniy va diniy markazlaridan biri bo'lgan. IX- X asrlarda Buxoro shahri Somoniylar davlati poytaxti bo'lib, shaharsozlikda o'ziga xos uslubda binolar barpo etila boshlandi. Somoniylar maqbarasi, Mag'oki Attor masjidi o'sha davrdagi me'morchilikning ko'zga ko'ringan yodgorligidir. 1220 yilda Buxoro shahri Chingizxon qo'shinlari tomonidan bosib olingan va shahar xarobazorga aylantirilgan. Yetti yil davom etgan xarobalik Buxoroning savdo, hunarmandchilik va madaniyat markazi sifatidagi ahamiyatini yo'qotdi.

Temuriylar davrida Buxoro shahar madaniyati rivojlandi. Me'moriy inshootlar doimiy ta'mirlanishi nazorat ostiga olinib, Ulug'bek davrida madrasalar barpo etildi. Shayboniy Ubaydullaxon davrida Buxoro shahri xonlik poytaxtiga aylantirilgan<sup>17</sup>. Shayboniy Abdulazizxon ibn Ubaydullaxon (1540-1550) va Abdullaxon II (1583-1598) davrida shahar devorlari mustahkamlangan va g'arbiy

<sup>17</sup> Эшов Б., Одилов А. Ўзбекистон тарихи. 1-жилд. Тошкент, 2014. - Б.373.

qismi kengaytirilgan<sup>18</sup>. XVII asrda hokimiyat Ashtarxoniylar qo'liga o'tganidan so'ng shaharda alohida binolar va yirik ansambllar qurila boshlandi. Shaharda qariyb 217 ta guzarlar mavjud bo'lgan<sup>19</sup>. Buxoro amirligi Chor Rossiyaning vassaliga aylangach, shaharsozlik infratuzilmasida bir qancha o'zarishlar sodir bo'ldi. Shaharning markaziy qismi va janubiy–g'arbiy tomonida yevropa tipidagi bir qavatli va ikki qavatli binolar barpo etildi<sup>20</sup>. Xususan, XIX asr oxirida qurilgan ikki qavatli yevropa tipidagi Jo'rabek karvonsaroyi<sup>21</sup>, Gavkushon guzari Shohrud kanalining ustidagi rus-xitoy banki hamda uning yonidagi pochta-telegraf binolarini ko'rsatish mumkin.

1920 yilda BXSР tashkil topganidan so'ng F.Xo'jayev rahbarligida iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar o'tkazilib, shahar infratuzilmasi o'zgara boshladi. Dastlab Buxoro ko'chalarida tosh yotqizish, transport yo'llarini tartibga keltirish borasida bir qator tadbirlar amalga oshirilgan<sup>22</sup>. BXSР hukumati ijtimoiy infratuzilmaga ham alohida e'tibor qaratib, zamonaviy usuldagi ta'lim va tibbiyot muassasalari bunyod etilgan. Jumladan, 1924 yilga kelib BXSРda 69 ta maktab, 2 ta institut, 3 ta musiqa va 3 ta hunarmandchilik maktablari, 13 ta internat, 13 ta kutubxona, muzey hamda drama teatri faoliyat ko'rsatgan<sup>23</sup>. Ayniqsa, sog'liqni saqlash tizimida tibbiy muassasalarning qurilishiga e'tibor qaratildi. Buxoro shahrida 100 o'rinli shahar shifoxonasi 200 o'rinli qilib kengaytirildi. Shifoxonaning old qismiga 3 ta yangi bino qurilib, ta'mirga muhtoj tibbiy muassasalarda ta'mirlash ishlari yo'lga qo'yildi. Bu tadbirlar uchun davlat tomonidan 200 ming oltin ajratiladi.<sup>24</sup> BXSР hukumati 1920-1921 yillarda molariya kasalini tarqalishiga qarshi dori-darmonlar xarid qilishga, shifoxona va profilaktika muassasalarining qurilishiga 1 mln oltin rubldan ortiq mablag' sarflaydi<sup>25</sup>. Ijtimoiy infratuzilma binolarining barpo etilishi Buxoro shaharsozligining rivojlanishiga turtki bo'lgan. BXSР hukumati ishlab chiqarish korxonalarini va savdo inshootlarini barpo etishga ham alohida e'tibor qaratdi. 1920 yili Buxoro shahrida Markaziy xalq banki, 1922 yili elektrostansiya, gugurt va sovun zavodlari<sup>26</sup>, 1923 yili Buxoro tovar-fond birjasi tashkil qilingan<sup>27</sup>. 1923 yilda Buxoroda 7 ta paxtani qayta ishlash, 3 ta yog' ishlab chiqarish, 4 ta teriga ishlov beruvchi korxonalar faoliyat ko'rsatgan<sup>28</sup>.

Shahar infratuzilmasi tarkibidagi turar joy qurilishi ham muhim ahamiyat kasb etib, xususan, ikkinchi jahon urushidan keyingi dastlabki yillarda shahar

---

<sup>18</sup> Жуманазар А. Бухоро таълим тизими тарихи. Тошкент: Академнашр, 2017. - Б.20.

<sup>19</sup> Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. Ташкент: Издательство Академии Наук Узбекской ССР. 1958. - С. 68.

<sup>20</sup> Болтаев А.Х. XX асрнинг 20-80 йиллари Бухорода тарихий ўлкашуносликнинг шаклланиши ва ривожланиши. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. - Тошкент. 2021. - Б. 67.

<sup>21</sup> Жўрабек карвонсаройи Арабон гузарида, Тоқи Саррофон савдо мажмуасининг жанубида жойлашган.

<sup>22</sup> Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида. Тошкент: Абу Матбуот-консалт, 2012. - Б. 78.

<sup>23</sup> Ишанов А. Бухарская Народная Советская Республика. Ташкент, 1969. – Б. 347.

<sup>24</sup> Ўзбекистон Миллий архиви, Р-61–фонд, 1–руйхат, 31–йиғма жилд, 110–варақ.

<sup>25</sup> Ўзбекистон Миллий архиви, Р-61–фонд, 1–руйхат, 11–йиғма жилд, 52–варақ.

<sup>26</sup> Жунаев З. Бухоро Халқ Совет Республикасида молия соҳасидаги аҳвол ва банклар фаолияти // Ўтмишга назар. 2020. Махсус сон. - Б. 149-150.

<sup>27</sup> Бухоро Шарқ дурдонаси. - Б. 77.

<sup>28</sup> Иноятов Х.Ш. Создание основ народно-демократического строя в БНСР. 50-лет Бухарского Народной Советской революции. материалы научной сессии. Ташкент: Фан, 1972. – Б. 82.

xo'jaligining barcha sohalari qatorida uy-joy qurilishi va mavjud binolarni ta'mirlashga e'tibor qaratilgan. 1948 yilda turar joylarni ta'mirlash rejasi Buxoroda 69 foiz bajarilgan bo'lib<sup>29</sup>, 1956 yilda Buxoro shahrida 33 ta uy-joy, 75 kishiga mo'ljallangan mehmonxona, hammom, maktab kabi binolar qurib topshirilgan<sup>30</sup>. Dunyo tajribasida yirik shaharlarni boshqarishda shaharni tumanlarga bo'lib idora etish usullari mavjud bo'lib, bu jarayon shaharni tezroq rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qaralgan. Sovet hukumati davrida Buxoro shahrida To'qimachilik va Fayzulla Xo'jayev tumanlari tashkil etildi<sup>31</sup>. Shahar tumanlarini takomillashtirish, obodonlashtirish va sanitariya holatini yaxshilash borasida 1970 yillar so'nggida 1 mln. 741 ming so'm sarflangan. Jumladan, yo'llar qoplamasini ta'mirlash, ko'chalarni yoritish, aholi dam olish maskanlarini obodonlashtirish ishlari olib borilgan<sup>32</sup>. Sovet hukumati davrida shahar qurilishi jarayonida bir qancha xatoliklarga ham yo'l qo'yilgan. Birinchidan, shahar qurilishida tabiiy omillarga e'tibor berilmay, xususan turar joy va ijtimoiy binolarni bunyod etishda shamol yo'nalishi hisobga olinmagan. Bu hol mazkur binolarda havo almashuvini qiyinlashtirgan. Ikkinchidan shaharni ko'kalamzorlashtirishda, ya'ni shahar atrofi "yashil zonasi"ni barpo etishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Vaholanki, cho'l zonasida joylashgan shaharni turli issiq shamollardan va tuzli chang bo'ronlardan, yaratilgan yashil zona himoya qiladi. Aytish joizki, shamollar ayrim shaharlar havosini tozalashda faol ishtirok etsa, ayrimlari ifloslashga o'z "ulushini" qo'shadi<sup>33</sup>. Tog'li hududlar qatori tekisliklarda joylashgan shaharlar havosining almashinuvida ham mahalliy shamollar ta'siri katta. Ayniqsa, bu holat Buxoro hududida yaqqol namoyon bo'ladi. Viloyatdagi shamollarning aksariyati shimol tomonidan esadi<sup>34</sup>. Shu sababli shaharsozlikda, aholi turar joy, korxonalar va turli muassasalar qurilishida bunday tabiiy qonuniyatga rioya qilinishi kerak. Shu qatori tarixiy-madaniy merosimizga juda katta zarar yetkazildi. Ark qal'asi oldidagi Registon maydoni va unga yaqin yerda joylashgan XVII asrga oid obidalari, jumladan, kattaligi jihatdan Masjidi Kalondan keyingi o'rinda turgan Poyandabiy otaliq masjidi, shuningdek Dor ush-shifo, Bozori go'sfand, Xo'ja Nihol, Shodimbiy madrasalari, Xo'ja Sa'd Jo'yboriy tarafidan XVI asrda qurilgan Kalobod madrasasi butunlay buzib yuborilgan<sup>35</sup>. Shahar mudofaa devorining katta qismi va undagi 11 darvozadan 9 tasi olib tashlangan. Qarshi darvozasi yaqinidagi Shayx Rangrez guzaridan to Kokilai Kalon guzarigacha bo'lgan hudud buzilib, o'rnida bolalar kasalxonasi, grenaj zavodi, avtovokzal va boshqa binolar qurildi.

Istiqlolning dastlabki yillarida O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari pasayib borganligini kuzatish mumkin. Bunga sabab Ittifoq davrida ko'chirib keltirilgan aholining shaharlarga joylashtirilganligi va mustaqillikning dastlabki

<sup>29</sup> Ўзбекистон Миллий архиви, Р-2182 фонд, 1-рўйхат, 1210-йиғма жилд, 102-варақ.

<sup>30</sup> Авалов М. Развитие городского хозяйства Бухары. Ташкент, – С. 358.

<sup>31</sup> Бухоро вилояти давлат архиви, 1296 фонд, 112-йиғма жилд, 1-рўйхат, 15-варақ.

<sup>32</sup> Бухоро вилояти давлат архиви, 37-фонд, 4-рўйхат, 1097-йиғма жилд, 43-варақ.

<sup>33</sup> Рафиқов А.А. Геоэкологик муаммолар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. - Б. 112.

<sup>34</sup> Мавлонов А. Чўл урбанизацияси. Бухоро: Дурдона, 2015. – Б. 45.

<sup>35</sup> Ремпель Л.И. Далёкое и близкое. Страницы жизни, быта, строительного дела, ремесла и искусства Старой Бухары: Бухарские записи. Ташкент: Изд.лит. и искусства. 1981. - С. 11.

yillarida ularni o'z vatanlariga qaytib ketishi natijasida respublika shaharlarida, jumladan, Buxoro shahrida ham aholi sonining kamayishi yuz berdi. Bu esa urbanizatsiya darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatdagi urbanizatsiya darajasi 1990 yilda 40,8 foiz, 1995 yilda 38,6 foiz, 2000 yilda 37,4 foiz, 2006 yilda 36,1 foizga tushib borgan<sup>36</sup>. 1995-2005 yillarda Buxoro viloyatida tug'ilish 27,3 mingtadan - 19,8 mingtaga, Buxoro shahrida tug'ilish 17,6 mingtadan -13,3 mingtaga tushganini ko'rishimiz mumkin<sup>37</sup>. Bu vaqtda respublika shaharlari bo'yicha ham tug'ilish 22,2 promilledan 17,4 promillegacha pasayganligini kuzatish mumkin. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 1996 yilda O'zbekiston shahar aholisining tabiiy ko'payishi 14,8 promilleni tashkil etgan bo'lsa, Buxoroda 11,6 promilleni, Navoiyda esa 15 promillega teng bo'lgan<sup>38</sup>. O'zbekistonning barcha hududlarida tabiiy o'sish darajasi 2006 yilgacha pasayib bordi. Bu o'z navbatida demografik jarayonlarda ham o'ziga xos o'tish davri kechayotganligidan dalolat berardi. 2020 yilga kelib, shahar aholisi 231000 kishidan 280800 kishiga, ya'ni yiliga o'rtacha 1717 kishiga ko'paygani aniqlangan<sup>39</sup>. O'tgan davr mobaynida viloyatda shahar aholisining ulushi 36,8 foiz, qishloq aholisi ulushi 63,2 foizni tashkil etib, 30 yil ichida jami aholi tarkibida shahar aholisining ulushi 32,5 foizdan 36,8 foizga ortgan, qishloq aholisidiki esa 67,5 foizdan 63,2 foizgacha kamayganligini ko'rishimiz mumkin.

Shahar taraqqiyotida aglomeratsiya jarayonlari ham o'ziga xos o'rinni egallaydi. Aglomeratsiya har xil tipdagi aholi manzilgohlarining hududiy majmuidir. U yirik markazlarning kichik va o'rta shaharlar, shaharchalar hamda qishloq manzilgohlarining birgalikda qo'shilishidan vujudga keladi. Buxoro atrofida ham XX asrning 70-yillarida shahar aglomeratsiyasi vujudga kelgan<sup>40</sup>. Jumladan, 1989 yilda aglomeratsiya yadrosi Buxoro shahrida 222,2 ming kishi yashab, unga aglomeratsiya jami aholining 41,4 foizi to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatgich 2004 yilga kelib, 36 foizni tashkil etgan. 2020 yil ma'lumotlariga ko'ra, Buxoro shahrida 280,2 ming kishi mavjud bo'lib, unda aglomeratsiyada jami aholining 26,3 foizi yashamoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, aglomeratsiyaning yo'ldosh shaharlari va periferiya zonasida aholi sonining nisbatan tez, markaziy shahar, yadroda (Buxoro shahrida) aholining sekin ortib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Buxoro aglomeratsiyasi tarkibiga Buxoro shahri va uning "yo'ldoshlari" Kogon, Vobkent, Jondor, Qorovulbozor, Galaosiyo va ko'plab shaharchalar kiradi<sup>41</sup>. Ayni paytda, Buxoro aglomeratsiyasi doirasida 11 ta yirik, 67 ta kichik korxonalar, 1043 ta mikro firmalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda<sup>42</sup>.

---

<sup>36</sup> Назарова Х.М. Ўзбекистонда урбанизациянинг ривожланиш хусусиятлари / "Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва ҳозирги замон" мавзусидаги халқаро амалий анжуман материаллари. –Тошкент, 2007. - Б.180.

<sup>37</sup> Бухоро вилояти йиллик статистик тўплами. Бухоро, 2005. - Б. 43.

<sup>38</sup> Мавлонов А. Чўл урбанизацияси. Бухоро: Дурдона, 2015. – Б. 77.

<sup>39</sup> Бухоро вилояти статистика бошқармаси маълумотномаси. 2020 йил.

<sup>40</sup> Mavlonov A.M., Nematov A.N. The influence of the Zarafshan river on the development of cities// Экономика и социум, №11(78), 2020. –С. 228-231. www.iupr.ru

<sup>41</sup> Солиев А.С. Ўзбекистон географияси. Тошкент, 2014. - Б. 221.

<sup>42</sup> Бухоро шаҳар паспорти. 2020 йил.

Dissertatsiyaning **“Buxoroning ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi va shahar muhitini rivojlantirish omillari”** deb nomlangan ikkinchi bobida zamonaviy iqtisodiy infratuzilmalar, logistika tizimini rivojlantirish masalalari, ijtimoiy infratuzilmalar modernizatsiyasi hamda barqaror shahar muhitini shakllantirish kabi masalalar tadqiq qilingan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab shahardagi sanoat korxonalarini xususiylashtirish va qayta tashkil etishga e'tibor kuchaydi<sup>43</sup>. 1996 yilda Buxoro viloyat sanoat korxonalarining umumiy soni 969 ta bo'lib, 2006 yilda ular soni 1713 tani, 2020 yil dekabrda 4432 tani tashkil qilgan<sup>44</sup>. Sanoat korxonalaridan 1221 tasi Buxoro shahri hududiga to'g'ri keladi<sup>45</sup>. Ulardan 268 tasi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, 853 tasi noziq-ovqat, ya'ni mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoati (197 ta), kimyo sanoati (52 ta), yengil sanoat (211 ta), charm-poyabzal sanoati (12 ta), farmasevtika sanoati (5 ta), qurilish materiallari (156 ta), elektrotexnika sanoati (7 ta), boshqa turdagi noziq ovqat sanoati (213 ta)ni tashkil qilgan. Shahar bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalarining 11 tasini yirik, 67 tasini kichik korxonalar va 1043 tasini mikrofirmalar tashkil qiladi<sup>46</sup>. 2020 yilda shahardagi 12 ta korxonalar tomonidan 15 turdagi import o'rnini bosuvchi mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarilishi yo'lga qo'yilgan. Bular metal profil quvur, sim va armatura, transformator va butlovchi qismlardir. Shu qatori 2019 yildan shaharda yangi turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Xususan, “Siyovush Tekstil Buxoro” MCHJ QK - akril ip ishlab chiqarish, “Tibtexnika” MCHJ - tibbiy buyumlar ishlab chiqarish, “Shohrud” MCHJ - zamonaviy dub bochkalar tashkil qilish yo'li bilan vino-konyak kompleksini ishlab chiqarish, “UZ PROM TEXTILE” MCHJ-gazlama (paplin matosi) ishlab chiqarila boshlandi.

Bugungi kunda zamonaviy shahar logistika xizmatida aeroport katta ahamiyatga egadir. Buxoro shahrida 1 ta xalqaro aeroport mavjuddir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning “2011-2015 yillarda infratuzilmani rivojlantirish, transport va kommunikatsiya qurilishini jadallashtirish to'g'risida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda yo'lovchilar tashilishining hajmi oshishi munosabati bilan Birlashgan Arab Amirligi (BAA) hukumatining moliyaviy yordami bilan 2011 yilda soatiga 400 ta yo'lovchiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan yangi aerovokzal binosi qurib foydalanishga topshirildi.

Buxoro shahri logistika xizmatida jamoat transporti ham muhim ahamiyat kasb etadi. Avtobus va mikroavtobuslardan tashqari, Buxoro shahrida trolleybus qatnovi ham yo'lga qo'yilgan edi. Shaharda ilk trolleybus qatnovi 1986 yil 25 dekabrda amalga oshirilgan<sup>47</sup>. 2005 yil sentyabr oyida trolleybus parkining elektr energiya tarmog'idan katta miqdorda qarzdorligi, ya'ni trolleybus qatnovi sarflanayotgan elektr energiyani qoplamagani va jamoat transporti sifatida xizmati

<sup>43</sup>Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тасарруфидан чиқариш ва хусусийлаштириш тўғрисида”ги Қонуни. 1991 йил 19 ноябрда эълон қилинган // [www.lex.uz](http://www.lex.uz) [www.lex.uz/pages.aspx?laet ul-127010](http://www.lex.uz/pages.aspx?laet ul-127010)

<sup>44</sup> Бухоро статистика бошқармаси маълумотномаси. 2021 йил.

<sup>45</sup> [buxstat.uz](http://buxstat.uz)

<sup>46</sup> Бухоро шаҳар ҳокимлиги жорий архиви. 2020 йил.

<sup>47</sup> <https://transphoto.Бухара-Городской электро транспорт.>

talab darajasida bo'lmagani sababli trolleybus parki faoliyati to'xtatilgan<sup>48</sup>. 2021 yilda Buxoro shahrida 30 ta yo'nalishda, jumladan 28 ta avtobus va 2 ta Damas rusumli avtotransport, boshqa tumanlar va shaharlararo 2 ta yo'nalishda aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda<sup>49</sup>. Shuningdek, shaharda avtotransport vositalari va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish maqsadida 3 ta, ya'ni "Buxoro-Avto-Shoh", "Chor Bakr", "Sharq" avtostansiyalari (shundan, 2 tasi xususiy sektorga va 1 tasi "Uzavtovokzal Servis" DUK Buxoro filialiga tegishli) faoliyat olib boradi.

Mustaqillik yillarida ijtimoiy infratuzilma (ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy-maishiy va sport muassasalari) modernizatsiyasi rivojlanib bordi. 1995 yilda Buxoro shahrida 77 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 6702 nafar tarbiyalanuvchilari bo'lgan bo'lsa, 2010 yilda shaharda 82 ta maktabgacha ta'lim muassasalarida 7702 ta bola tarbiyalangan. 2016 yilga kelib shaharda maktabgacha ta'lim muassasalari 74 tani tashkil qilib, undagi tarbiyalanuvchilar soni 12815 taga oshgan<sup>50</sup>. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Buxoro shahrida 25 yil davomida tarbiyalanuvchilar soni ko'payishiga qaramay maktabgacha muassasalar soni kamayganini kuzatish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalari sonining kamayishi moddiy texnik bazaning eskirganligi va xizmat ko'rsatishga yaroqsiz bo'lganligi, sanitariya xizmatlari uchun yetarli mablag'lar ajratilmagani, ularning faoliyati to'xtatilishi bilan izohlanadi. Bu holatni respublikaning boshqa shaharlarida ham uchratish mumkin edi. 1991-2016 yillarda respublika bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalari soni 45 foizga kamaygan<sup>51</sup>. Maktabgacha ta'lim muassasalariga borayotgan bolalar, umumiy bolalar sonining 27 foizini tashkil qilgan xolos. 2017 yillardan boshlab maktabgacha ta'lim sohasida katta o'zgarishlar, sifat jihatidan yangi tizim yaratildi. 2020 yilga kelib Maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 102 taga yetkazildi<sup>52</sup>. Bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrovi esa 30 foizdan 62 foizga oshirildi.

1992 yildan Buxoro shahri umumiy o'rta ta'lim sohasi islohotlar zahirida qayta qurildi. Buxoro shahrida 1997 yilda 44 ta umumta'lim maktablari faoliyat yuritgan<sup>53</sup> bo'lsa, 2010 yilda 45 ta, 2015 yilda 47 ta, 2021 yilga kelib 57 tani tashkil etmoqda. 2018 yilda shaharda xususiy mulkchilik shaklidagi 2 ta umumta'lim muassasasi o'z faoliyatini boshlagan. 1997 yilda Buxoro shahrida 21 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari; 17 ta kasb-hunar kolleji, 3 ta akademik litsey faoliyat yuritgan. 2020-2021 o'quv yilidan ta'limning xalqaro standart tasniflagichi darajalari bilan uyg'unlashgan boshlang'ich, o'rta va o'rta-maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi. Buxoro viloyatidagi 81 ta kasb-hunar kollejlarning 65 tasi optimallashtirildi. Hozirgi kunda Buxoro shahrida 3 ta kasb-hunar kolleji, 1 ta kasb-hunar maktabi, 6 ta texnikum faoliyat ko'rsatmoqda<sup>54</sup>.

<sup>48</sup> Ражабов Қ. Бухоро вилояти тарихи. Қисқача маълумотнома. Тошкент: Тафаккур, 2015. - Б. 94.

<sup>49</sup> Бухоро вилоят транспорт бошқармаси маълумотномаси. 2022 йил.

<sup>50</sup> buxstat.uz. Ijtimoiy soha. 2022 yil.

<sup>51</sup> Тиллаев Ў. Муҳим қонун кучга кирди // "Халқ сўзи" газетаси. 2020 йил 22 июн.

<sup>52</sup> buxstat.uz. Ijtimoiy soha. 2022 yil.

<sup>53</sup> Зияева Д.Х. Ўзбекистон шаҳарларининг энг янги тарихи: ислохотлар ва модернизация жараёнлари. Тошкент, 2016. – Б.88.

<sup>54</sup> Хунар таълимни ривожининг янги истикболлари // "Бухоронома" газетаси. 2019 йил ноябр.

Oliy ta'lim tizimi sohasida ham istiqlol yillarida bir qancha o'zgarishlar amalga oshirildi. Shaharda mavjud barcha oliy ta'lim muassasalarida ta'mirlash ishlari olib borildi. 2014 yilda Buxoro davlat universitetining bosh binosini kapital ta'mirlash, moddiy texnik bazasini yangilanishi uchun 11 milliard so'mdan ortiq mablag' sarflandi. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro tibbiyot institutiga 2019 yilda 6,405 mlrd. so'mdan ortiq mablag'lar ajratilgan bo'lib, muassasaning 12 ta ob'yektlarida yangi o'quv yiliga tayyorlash ishlari olib borildi. Buxoro muhandislik–texnologiya institutida 2011 yilda respublika oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida yangi o'quv binolari barpo etildi. Buxoro shahridagi yana bir oliygoh bu Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarini boshqarish instituti bo'lib, 2010 yil 20 avgustda tashkil etilgan. 2019-2020 yillarda institutga jami 1,5 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratilib, 12 ta ob'yektda qurilish ishlari olib borildi, jumladan 3 ta talabalar turar joyi, 1 ta axborot-resurs markazi, 2 ta kompyuter xonasi, 1 ta o'quv va laboratoriya binosi, 5 ta yer maydoni yangi o'quv yili uchun ta'mirlandi<sup>55</sup>.

